

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025  
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                         |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>A.G.Sabirdinov</b>                                                                   |    |
| O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy .....                                           | 6  |
| <b>G.M.Oripova</b>                                                                      |    |
| Ayol ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri.....                                 | 9  |
| <b>M.A.Jo'rayeva</b>                                                                    |    |
| Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri .....                                 | 13 |
| <b>G.Muhammadjonova</b>                                                                 |    |
| Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok.....                                    | 17 |
| <b>I.A.Эшонқулов</b>                                                                    |    |
| Тавсифи мушаххаси тазкираҳои Ҳашмати Бухорой.....                                       | 21 |
| <b>B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova</b>                                                     |    |
| "Bobotog"essesida peyzaj: flora tasvirida badiiylik.....                                | 28 |
| <b>I.A.Эшонқулов,З.П.Аҳмедҷонова</b>                                                    |    |
| Ситоиши хирад ва хирадгустарӣ дар "Шоҳнома"-и Ҳаким Фирдавсӣ .....                      | 34 |
| <b>D.T.Musayeva</b>                                                                     |    |
| Elizabet Gaskel ijodiga nazar .....                                                     | 39 |
| <b>H.H.Қаюмов</b>                                                                       |    |
| Муаммои шинохти санъати ташхис дар поэтикаи мумтози форсу тоҷик.....                    | 42 |
| <b>Sh.T.Ibragimov</b>                                                                   |    |
| "Babur the tiger" romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi .....                   | 47 |
| <b>J.T.Ibragimov</b>                                                                    |    |
| "Qutadg'u bilig" istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqur mulohaza..... | 55 |
| <b>A.A.Akbarov</b>                                                                      |    |
| Vatanga muhabbatning lirik ifodasi .....                                                | 61 |

## TILSHUNOSLIK

|                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sh.M.Iskandarova</b>                                                                                                       |     |
| Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun .....                                                              | 66  |
| <b>Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова</b>                                                   |     |
| Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок.....                            | 71  |
| <b>Z.V.Alimova</b>                                                                                                            |     |
| Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida .....                                  | 81  |
| <b>A.B.Uralov</b>                                                                                                             |     |
| Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar .....                                                     | 86  |
| <b>Z.A.Davlataliyeva</b>                                                                                                      |     |
| Ingliz tili darslarida talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari.....             | 90  |
| <b>H.A.Абдуллаева</b>                                                                                                         |     |
| Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках ..... | 95  |
| <b>H.A.Отахонова</b>                                                                                                          |     |
| Проблемы общей теории и классификации лингвокультурам .....                                                                   | 100 |
| <b>B.B.G'aprov</b>                                                                                                            |     |
| Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi.....  | 106 |
| <b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>                                                                                           |     |
| Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili.....                                             | 112 |
| <b>N.Fidan</b>                                                                                                                |     |
| Ellipsis in English text linguistics .....                                                                                    | 115 |
| <b>M.O.Qulmatova</b>                                                                                                          |     |
| Ingliz va o'zbek tillaridagi "boylik/wealth va kambag'allik/poverty" konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari.....     | 120 |
| <b>N.X.Boboqulova</b>                                                                                                         |     |
| Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili .....                                | 124 |



UO'K: 821.111(410).09"18"

**ELIZABET GASKEL IJODIGA NAZAR****A GLIMPSE AT THE WORK OF ELIZABETH GASKELL****ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО ЭЛИЗАБЕТ ГАСКЕЛЛ****Musayeva Dilsuz Tuychiyevna** 

Qarshi davlat universiteti Lingvistika kafedrası PhD dotsenti v.b.

**Annotatsiya**

Buyuk Britaniya adabiyotida ayol yozuvchilarning tutgan o'rnı salmoqli bo'lib, Jeyn Ostin, opa-singil Brontelar, Virjiniya Vulf kabi ko'pgina adibalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ulardan biri, 19-asr qirolicha Viktoriya davri adabiyoti namoyondalaridan biri Elizabet Gaskeldir. Adiba hayoti mobaynida 6 ta roman, bir qancha hikoyalar muallifi bo'lib, feministik asarlari bilan elga tanilgan. Ushbu maqolada ingliz adibasi Elizabet Gaskelning hayoti va ijodiga nazar tashlab, biografik asari haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация**

Женские писательницы занимают важное место в британской литературе, и среди них можно отметить таких авторов, как Джейн Остин, сестры Бронте и Вирджиния Вулф. Одной из выдающихся фигур викторианской литературы XIX века является Элизабет Гаскелл. За свою жизнь она написала шесть романов и множество рассказов, получив известность благодаря своим феминистским произведениям. В данной статье рассматривается жизнь и творчество английской писательницы Элизабет Гаскелл, с особым вниманием к её биографическому труду.

**Abstract**

The role of female writers in British literature is significant, with authors such as Jane Austen, the Brontë sisters, and Virginia Woolf serving as notable examples. Among them, one of the prominent figures of 19th-century Victorian literature is Elizabeth Gaskell. Throughout her life, she authored six novels and numerous short stories gaining recognition for her feminist works. This article explores the life and literary contributions of the English writer Elizabeth Gaskell, with a particular focus on her biographical work.

**Kalit so'zlar:** Viktoriya davri adabiyoti, roman, biografik asar, adiba, ijtimoiy realizm, ijtimoiy munosabatlar, adabiy uslub, mustaqil ayol obrazi

**Ключевые слова:** викторианская литература, роман, биографическое произведение, писательница, социальный реализм, социальные отношения, литературный стиль, образ независимой женщины

**Key words:** Victorian literature, novel, biographical work, female writer, social realism, social relations, literary style, independent female character.

**KIRISH**

O'tgan asrning oxirgi o'n yilliklarining qirolicha Viktoriya davri adabiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarida ingliz adibasi Elizabet Gaskel muhim ahamiyat kasb etuvchi adabiy figuraga aylandi. Bugungi kunda adiba turli janr va ko'lamdagi muvaffaqiyat qozongan asarlar muallifi sifatida tan olinadi. E.Gaskel mahoratli yozuvchi sifatida ko'rilib, ayniqsa, hikoya va qissalari hanuzgacha kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Ko'pgina hikoya va qissalar, bir nechta romanlardan tashqari Gaskel biografik asar muallifi ham bo'lib, davrdoshi bo'lmish yana bir yorqin ingliz adibasiga bag'ishlangan "Sharlotta Brontening hayoti" (*The Life of Charlotte Bronte*) (1857)[1] nomli asari ushbu janr rivojlanishiga sezilarli hissa qo'sha olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Elizabet Gaskel asarlarining asosiy mavzusi ishchi sinf hayotidagi muammolar, ijtimoiy hayotda ayollarning tutgan o'rnı, o'zgarayotgan ijtimoiy tizim kabilarni yoritib berishni o'z ichiga oladi. Gaskelning ilk ijodi 1848-yilda "*Mari Barton: Manchester hayotidan hikoya*" (*Mary Barton: A Tale of Manchester Life*) [1] nomli romani bilan boshlangan. Ushbu roman Manchester shahridagi ishchilar sinfining ijtimoiy-iqtisodiy holatlari, asosan, sanoatlashtirish revolyutsiyasi mobaynidagi

vaziyatga javob o'laroq yaratilgan. Bu yondashuv adibaning ijtimoiy hayotga befarq emasligi, oddiy xalqning muammo va tashvishlariga kuyunishini bildiradi.

Elizabet Gaskel 6 ta romandan tashqari bir qancha hikoyalar muallifi bo'lib, hikoyalari Charlez Dikkensning "Household Worlds" jurnalida nashr qilingan. Adibaning ko'p o'qiladigan hikoyalari va qissalariga misol qilib "*The Old Nurse's Story*" (1852), "*The Grey Women*" (1861), "*Cousin Phillis*" (1863-1864) kabilarni keltirishimiz mumkin. Garchi E.Gaskel o'z zamondoshlari bo'lmish Ch. Dikkens, Bronte opa singillari kabi mashhurlikka erishmagan deb hisoblansada, uning ijodi adabiy tanqidchi va kitobxonlar tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda. Adibaning bir nechta romanlari asosida televideniya dramalari, kinofilmlar ishlangan va o'z navbatida E.Gaskelning XIX asr Viktoriya adabiyotida o'ziga xos uslubga ega yozuvchi sifatida maqomini mustahkamladi.

### MUHOKAMA

Ingliz adibasi E.Gaskelning "Sharlotta Brontening hayoti" biografik asari o'z zamondoshi bo'lmish Sh.Brontening (Charlotte Brontë 1817-1855) o'limidan ikki yil o'tib nashr qilingan bo'lib, dastlabki biografik janrda yaratilgan asarlar sirasida Brontening to'liq hayotini qamrab olgan asar hisoblanadi. Ushbu biografik asar yaralishiga asosiy turtki bo'lgan inson Sh.Brontening otasi Patrik Bronte (Patrick Brontë) bo'lib, u qizining "*Jane Eyre*" (1847), "*Villette*" (1853) nomli o'z davridagi noan'anaviy romanlari tufayli ijodkor sifatidagi obro'yi omma tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligini isbotlashda yordam berishiga umid qildi. Gaskel dugonasi Sharlottani fazilatli, yaxshi axloqqa ega ayol yozuvchi sifatida tasvirlaydi. Gaskel Sh.Bronteni nafaqat romannavis sifatida, balki oqila ayol, oilasidagi yo'qotishlar, kambag'allikdan azob chekishiga qaramay ijod yo'lidan to'xtamagani uchun ham hurmat qilardi. Sh.Brontening shaxsiy yozishmalari, xatlaridan foydalanish imkoniyati biografik asarning yanada haqqoniy yozilishiga imkon berdi.

E.Gaskel biografik asarini xronologik tartibda tuzdi, ya'ni, avval Sh.Brontening bolaligi o'tgan Yorkshaye haqida bo'lib, opa-singil Brontelar o'zaro aloqalari, o'xshash iqtidorlari haqida yoritilgan. Gaskel bu joyning tabiatini, tog'larni ham tasvirlab, bu Bronte opa-singillarining asarlarida ham tabiat tasvirida qo'l kelganini ko'ramiz. Asar Bronte opa-singillarining ilk ijodiy faoliyati, o'sha davr muhitidan kelib chiqib Brontelar asarlarini taxallus ostida[2] nashr qildirganlari haqida ham so'zlaydi. Ayniqsa adiba Brontening oilasidagi yo'qotishlar haqida kengroq ma'lumot beradi. Brontening ikki singlisi yosh vafot etishadi, Anna va Emili Brontelar vafoti hamda ukasi Brenvilning sog'ligi yomonlashuvi asarning bir bobida Sharlottaning yolg'izligini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. [2]

Gaskel biografik asarida Sharlotta Brontening kamtarligi, xushxulqi, mas'uliyatlilikiga urg'u beradi. Adibaning Sharlotta Bronte tasvirida qirolicha Viktoriya davri ayoli sifatidagi qadriyatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Gaskel o'zining axloqiy va ijtimoiy ideallarini aks ettiruvchi taqvodorlik va sabr-toqat mavzularini yoritishga ahamiyat beradi. U Sharlottaning oilaviy hayotini, otasi oldidagi burch hissini va Artur Bell Nikols bilan turmush qurishni istamay qabul qilganligini ta'kidlaydi.

Biroq, Gaskel dugonasini shu tarzda tasvirlashda Brontening adabiy mustaqilligini va uning romanlaridagi ko'proq o'sha davrga mos bo'lmagan unsurlarni kamaytirib ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Masalan, Gaskel "*Jeyn Eyre*"dagi radikal mavzularni, masalan, gender rollarini tanqid qilish, ayollarning mustaqil bo'lish huquqlari va sinfiy tengsizlikni yoritib bergan, ular Bronte haqidagi biografik asar yozilishida muhim o'rin tutadi. Gaskelning Viktoriya davrining axloqiy asosini keltirishi uni qisman Sharlottaning obro'sini himoya qilish uchun bu munozarali jihatlarini kamaytirishga sabab bo'ldi.

Gaskelning ijodi realizm, ijtimoiy munosabat va axloqiy tashvish uyg'unligi bilan ajralib turadi. Uning adabiy uslubi va asar mavzusi ba'zi asosiy xususiyatlardan iboratdir. Ijtimoiy realizm misolida Gaskelning romanlarida ko'pincha sanoatlashish davri, xususan Manchesterdagi bu davrga bog'liq haqiqatlar tasvirlangan. Uning qashshoqlik, sinfiy qarama-qarshilik va ishchilar sinfi kurashlari haqidagi o'z ko'rgan-kechirganlari romanlarida Viktoriya davri kitobxonlarida aks-sado beradigan haqqoniylikni yoritib beradi [5]. Biroq, uning ijtimoiy realizmi umid va sinfiy nomutanosiblik o'rtasida murosas imkoniyatiga ishonish bilan farqlanadi.

Adiba oddiy axloqiy hukmlarni yoqlamaydi, aksincha, Jon Barton, Jon Tornton va hatto Rut kabi personajlar o'z davrining og'ir ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy sharoitlarini aks ettiruvchi murakkablik bilan tasvirlangan. Gaskelning kambag'allarga, ishchilar sinfiga va ayollarga, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan chetga surilganlarga chuqur hamdardligi uning asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

---

Gaskelning romanlari kuchli, mustaqil ayol obrazlari bilan ajralib turadi. Margaret Xeyl, Meri Barton va Molli Gibson kabi qahramonlar Viktoriya jamiyatida ayollarga berilgan stereotipik rollarga qarshi chiqib, ayollarning axloqiy va intellektual kuchini himoya qiladilar.

**XULOSA**

Unitar sifatida yozuvchining diniy e'tiqodlari uning asarlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xayriya, bag'rikenglik va ijtimoiy adolatga bo'lgan urg'u uning hikoyalarida to'qima bo'lib, ko'pincha rahm-shafqatli va kamroq hukm qiluvchi jamiyatni yoqlaydi. Dikens, Eliot va Brontelar kabi zamondoshlari tomonidan ko'pincha soyada qolsa-da, Elizabet Gaskelning Viktoriya adabiyotiga qo'shgan hissasi 20-asrning so'nggi o'n yilliklarida qayta baholandi. Uning ijtimoiy masalalarni, murakkab xarakteristikalar va feministik mavzularni chuqur o'rganishi uni 19-asr ingliz romannavisligining keng qamrovli ekanligini tushunishda muhim shaxsga aylantiradi. Bugungi kunda Gaskelning asarlari o'zining insonparvarligi, hamdardligi, o'sha davrning ijtimoiy va ma'naviy muammolariga nisbatan nozik munosabati bilan e'tirof etilgan.

Gaskel nafaqat oilaviy hayotda, balki ijtimoiy hayotda ham faol bo'lgan, uy ishlariyu, farzandlar parvarishi, ularga ta'lim berishdan tashqari, yakshanba kunlari maktabda ham dars bergan. Bundan tashqari asarlariga nashriyot topish bilan shaxsan o'zi shug'ullanib, o'sha davrda Manchesterda yashab faoliyat yuritgan ziyolilar bilan ham fikr almashib turgan. E.Gaskelning asarlari oilani insonning ijtimoiy mavjudotga aylanishida muhim rol o'ynovchi omil sifatida tasvirlaydi. U ayollik va onalik vazifalaridan ortib, ijod qilib, kitobxonlari yuragidan joy olishga muvaffaq bo'lgan yozuvchidir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Weyant, Nancy S (2007). *The Cambridge Companion to Elizabeth Gaskell; Chronology*. Cambridge University Press, pp. xi–xx. ISBN 978-0-521-60926-5.
2. Gaskell, Elizabeth (1857). "The Life of Charlotte Bronte" in two volumes, Smith, Elder & Co.
3. "Elizabeth Gaskell Biography - The Gaskell Society". <https://gaskellsociety.co.uk/elizabeth-gaskell/>
4. Pollard, Arthur (1965). *Mrs. Gaskell: Novelist and Biographer*. Manchester University Press, pp. 268.
5. Cecil, David (1934). *Early Victorian Novelists: Essays in Revaluation*. Constable & Co.